

XALQ OG`ZAKI IJODINING SHAXSNI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

*O'zDSMI, Kutubxona-axborot faoliyati
mutaxasisligi 2- kurs magistranti
Beknazarova Shaxrizoda Dilmurod qizi*

Annotatsiya: Xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyati aks ettirilgan qadriyatlar, urf-odatlar va axloqiy meyorlar bolalar va yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, ertaklar, maqollar, dostonlar, xalq qo‘shiqlari va matallarda insoniylik, adolat, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlar ulug‘lanadi.

Kalit so‘zlar: Xalq ijodi, ertak, maqol, doston, xalq qo‘shiqlari, urf-odatlar, topishmoq, latifa

Bugungi glaballahuv jarayoni o`z cho`qqisiga yetayotgan bir davrda shaxsning yoki, umuman, xalq ma`naviy dunyosi va o`zligini saqlab qolish eng dolzarb masala bo`lib qolmoqda va, albatta, bu masalani ma`naviy meroslarga suyangan holda amalga oshirishni taqozo qiladi. Xalq og‘zaki ijodi, avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘ziga xos tarbiyaviy va ma’naviy manbadir. Bu boy merosning o‘ziga xosligi shundaki, u og‘zaki shaklda saqlanib, jamiyatning turli qatlamlarida tarqalib, o‘zida tarixiy, ijtimoiy, axloqiy qadriyatlarni mujassam etadi. Xalq og‘zaki ijodi milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘lib, unda yetuk shaxsni shakllantirishga qaratilgan bir qancha muhim omillar bor.

Xalq og‘zaki ijodida doimiy aks etib kelgan qadriyatlar, urf-odatlar va axloqiy me'yorlar yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, ertaklar, maqollar, dostonlar, xalq qo‘shiqlari va matallarda insoniylik, adolat, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlar ulug‘lanadi. Ushbu asarlar yosh avlodga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatishda bebaho manba hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi aqlni charxlashda muhim vosita hisoblanadi. Maqollar, topishmoqlar, latifalar orqali odamlar o‘rtasida aql va tafakkur sinovlari o‘tkaziladi. Bu esa bolalarda mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi..

Xalq og`zaki ijodi shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsning hayoti davomidagi turli turmush sinovlari, og`ir kunlariga bardoshi, yaqinlarini: ota-onha va jigarlarining bunday paytlarda suyanchig`i bo`la olishlik – bularning hammasi yetuk shaxsga xos xislathardir. Xalqimizda “yeti o`lchab, bir kes”, “qaytadigan eshicingni qattiq yopma”, “dushmanga orqa o`girma”, “sinalmagan otning ortidan o`tma” kabi bir talay matallar borki, bularning barchasiga, masalan, “Alpomish” dostonidan misollar topish mumkin. Xususan, aka-uka Boybo`ri va Boysarining “zakot” masalasida kelishmay qolishi, shoshib qaror chiqarib, o`zga ellarda sarson-u

sargardon bo`lishi - yetti o`lchab bir kesmaslik, yana asar oxirida bir-birini chin yurakdan sevuvchi inilarning bir-birlarining bag`irlariga otilishi, yig`lab ko`rishishlari “qaytadigan eshicingni qattiq yopma” matallariga mos keladi. Bunday dostonlarni chin ko`ngildan o`qib chiqqan, qalbida o`zgacha xulosa chiqargan shaxs o`z kelajak hayotida yeti o`lchab, bir kesadigan, shoshib qaror chiqarmaydigan, qaytadigan eshagini qattiq yopmaydigan bo`lib kamol topishiga ishonaman. Zero, farzandiga ota-onasi tarbiya bermoqchi bo`lib, “unday qilma, bunday qilma” deb mavhum gapirib o`tirgandan ko`ra dostonning shu qismining mag`zini chaqib bersa – shuning o`zi kifoY.

Yigitlarga xos mardlik, donolik va jasurlik masalasidagi tarbiya uchun ko`plab ertaklar orasidan “Uch og`a-ini botirlar” ertagini misol tariqasida olish mumkin. To`ng`ich botir tunda qilgan mardligi uchun tongda turib ukalariga maqtanmaydi – vaqt(soati kelishini kutadi. Qo`yingki, biror bahodir (garchi ular aytishga arziguylig ish qilgan bo`lsalar-da) maqtanchoqlik qilmaydi. Zero, farzand tarbiyasida uning yetuk shaxs bo`lib yetishishini istagan ota-onasi “maqtanchoq bo`lma – uyatga qolmaysan” degan maqolni keltirishi bilan birga, so`ziga misol tariqasida yuqoridagi ertakni o`qib berib, mohiyatini tushuntirsa, bu tarbiya – endi bo`lakcha – yurak-yuragiga yetib boradi.

“Kuntug`mish” dostonidagi Azbarxo`ja obraqi orqali yosh bolalarda do`stlikka xiyonat nima-yu, uning oxiri qanday izza bo`lish bilan tugashligini, xalq oldida sharmanda-yu sharmisor bo`lmoqlik nima ekanini tushuntirish mumkin; “Susambil” ertagini o`qib berib bolalarga birdamlik nima va u insonni nimalarga erishtira olishini anglatish mumkin; “Tulki bilan turna” ertagini o`qib, tahlil qilish orqali imkoniyat jihatidan bir-biriga mos kelmaydigan insonlarning do`stligi qanday noqulay holatlarni yuzaga keltirishi mumkinligini, do`st tanlashda adashmaslik kerakligini tushuntirish mumkin. Taqdir charxpalagi insonning boshiga ne ko`ylarni solmaydi deysiz... Inson boshiga ish tushganda “endi tamom!”, “shumi mening bitigim?”, “eh, ne kunlarga qoldik?” deb emas, hamma narsa: yaxshilik ham, yomonlik ham, azob-uqubat ham, og`ir kun yoki baxtli damlar ham o`tajak ekanini biladi. Axir u – yetuk inson. Vaqtida ota-onasi “Zumratning qiyinchiliklari-yu, oxir-oqibat yetishgan baxt-saodatlarini yoshligidan mukammal tahlil qilib berib tarbiyalaganliklaridir.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, dostonlarning paydo bo`lishi qadim tarixga ega. Ularda xalqimizning yashash tarzi, madaniyati aks ettiriladi. Shunday ekan dostonlarni o`rganish, o`sib kelayotgan yosh avlodga o`rgatish barchamizning vazifamizdir. Bolalar asosiy bilimni mакtabda olishadi. Shuning uchun maktab darsliklariga xalq og`zaki ijodi, shu jumladan dostonlarning kiritilishi maqsadga muvofiqdir. O`quvchilar dostonlarni o`qib, o`zlariga yetarlicha xulosa chiqarib oladilar. Doston qahramonlaridagi mardlik, jasurlik, yurtga sadoqat, oilaga mehr-muhabbat, do`stlik barchamizga o`rnak bo`larli darajada aks ettirilgan. Dostonlar yosh

avlodning dunyoqarashini shakllantirishda, ma`naviyatini yuksaltirishda biz uchun ulkan poydevordir. Ayniqsa, bugungi glaballashuv, internet tarmoqlari rivojlangan zamonda milliy qadriyatlarimiz va qarashlarimizni sof holda saqlashning birdan bir yo`li o`zbek falklorini targ`ib qilishni kuchaytirishimizdadir. Xalq og`zaki ijodi yetuk shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Uning tarbiyaviy ahamiyati, axloqiy va ma`naviy qadriyatlarni yosh avlodga etkazish orqali millatning ma`naviy boyligi va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon milliy ongning mustahkamlanishi, oila va jamiyatga nisbatan hurmatni rivojlantirish, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish orqali yetuk shaxsni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar royhati

1. Davlatov, S.X. Oliy ta'lim tizimi sifatini oshirishda zamonaviy menejmentning o'rni va ahamiyati // Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. –2024. – №2 (9). – P. 135-139.
2. Hojimurodov, A. O'zbek xalq ertaklari va ularning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent, O'zbekiston, 2011 y.
3. Issakov M. M. Yakka tartibda kutubxona–axborot xizmati ko'rsatishning dolzARB vazifalari // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – T. 32. – №. 1. – S. 94-103.
4. Karimov, Sh. Maqollar va ularning axloqiy ahamiyati. – Toshkent, Istiqlol, 2009 y.
5. Khakimova M. Y. Analysis of The Process of Forming Reading Culture Among Young in Republic of Uzbekistan // Amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 3. – №. 9. – P. 6-10.
6. Grebenyuk M. V. Youtube as a marketing tool in promoting library services // Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 3. – №. 8. – P. 116-126.
7. Mirzayev, SH. Folklor pedagogikasi: o'tmishdan bugungi kun. – Samarqand: Samarqand universiteti, 2012 y.
8. Muminkhodjaeva L.N. Problem-based learning in the holistic process of training specialists at the university of culture // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. - 2023. - Volume 01, Issue 10. – P.150-159. - ISSN (E): 2993-2769
9. Nosirov U. Current issues in library and information services // Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya. – 2024. – T. 3. – №. 9. – C. 28-32.
- 10.Qosimov, N. O'zbek xalq dostonlari va ularning ma`naviy-ma'rifiy o'rni. – Toshkent, Akademnashr, 2015 y.
- 11.Vahobov, R. Xalq og`zaki ijodi va uning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent, Ma`naviyat, 2007 y.
- 12.Абдуганиева З. М. Культура Общения В Библиотеках // Miasto Przyszlosci. – 2024. – T. 52. – C. 127-130.

13.Матмурадова М. И. Маълумотнома нашрлар, уларнинг ахборот–библиография хизматида тутган ўрни //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 31. – №. 2. – С. 22-29.

14.Цай И. Проблемы развития библиотечного персонала в современной деятельности библиотечно-информационных учреждений // Fan, ta'lim, madaniyat va biznesda internet va axborot-kutubxona resurslari. – 2023. – С. 343.